

## **BANKLAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA’MINLASH MASALALARI**



**Xolmamatov Farhodjon Kubaevich**

*iqtisodiyot fanlari bo‘yicha*

*falsafa doktori (PhD)*

*bank ishi kafedrası professori*

*Toshkent moliya instituti*

*E-mail: [fkholmamatov@gmail.com](mailto:fkholmamatov@gmail.com)*

*ORCID: 0000-0003-4186-0691*

### **Annotatsiya**

Maqolada tijorat banklarida kreditlashni tashkil etish asoslari, kredit portfelini shakllantirish mezonlari, ularning nazariy-huquqiy asoslari, mamlakatimiz tijorat banklarining kreditlash amaliyotining joriy holati, shuningdek, kredit portfelining sifati tadqiq etilgan. Tijorat banklarining kredit qo‘yilmalari tarkibi va tasnifi, muammoli kreditlarning dinamikasi, rivojlangan davlatlarda, xususan, Yevropa Ittifoqida muammoli kreditlarning o‘zgarish dinamikasi tahlil qilingan hamda tegishli xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Shuningdek, banklarning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi moliyaviy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lgan kredit portfelini sifati, Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tijorat banklarida zararlarni qoplash uchun tashkil etilgan zaxiralarning bank kreditlaridagi ulushi dinamikasi tahlil qilingan va ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

**Kalit so‘zlar:** bank kreditlari, kreditlash samaradorligi, muammoli kreditlar, zaxiralar, kredit ta‘minoti, strategik rejalar, kredit risklari.

## **ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ БАНКОВ**

**Холмаматов Фарходжон Кубаевич**

*доктор философии (PhD)*

*по экономическим наукам*

*профессор кафедры банковского дела*

*Ташкентский финансовый институт*

*E-mail: [fkholmamatov@gmail.com](mailto:fkholmamatov@gmail.com)*

*ORCID: 0000-0003-4186-0691*

### **Аннотация**

В статье рассматриваются основы кредитования в коммерческих банках, критерии формирования кредитного портфеля, их теоретико-правовая основа, современное состояние кредитной практики коммерческих банков нашей страны, а также качество кредитного портфеля. Проанализированы состав и классификация кредитных депозитов коммерческих банков, динамика проблемных кредитов, динамика изменения проблемных кредитов в развитых странах, в частности в Европейском Союзе, сформулированы соответствующие выводы и предложения.

Также были проанализированы качество кредитного портфеля, являющегося одним из финансовых показателей, отражающих финансовую устойчивость банков, динамика доли резервов, созданных на покрытие потерь в коммерческих банках развитых и развивающихся стран, в банковских кредитах и сделаны научные выводы. были сформированы.

**Ключевые слова:** банковские кредиты, эффективность кредитования, проблемные кредиты, резервы, кредитное обеспечение, стратегические планы, кредитные риски.

### **ISSUES OF ENSURING FINANCIAL STABILITY OF BANKS**

**Kholmamator Farkhodjon Kubayevich**

*Doctor of Philosophy in Economics,  
Professor of the Department of "Banking".*

*Tashkent Institute of Finance*

*E-mail: fkhalmamator@gmail.com*

*ORCID: 0000-0003-4186-0691*

### **Abstract**

The article examines the basics of lending in commercial banks, the criteria for forming a loan portfolio, their theoretical and legal basis, the current state of lending practices of commercial banks of our country, as well as the quality of the loan portfolio. The composition and classification of commercial banks' credit deposits, the dynamics of problem loans, the dynamics of changes in problem loans in developed countries, in particular, in the European Union, were analyzed and appropriate conclusions and proposals were formed.

Also, the quality of the loan portfolio, which is one of the financial indicators representing the financial stability of banks, and the dynamics of the share of reserves established to cover losses in commercial banks of developed and

developing countries in bank loans were analyzed and scientific conclusions were formed.

**Key words:** bank loans, lending efficiency, problem loans, reserves, credit provision, strategic plans, credit risks.

### **Kirish**

Soʻnggi yillarda moliyaviy sektorni izchil isloh qilish davomida qator chora-tadbirlar amalga oshirilib, ilgʻor bank biznesini yuritish hamda ushbu sektorda raqobat muhitini kuchaytirish uchun zarur huquqiy shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Shu bilan birga bank sohasidagi hozirgi holat tahlili davlatning yuqori darajadagi aralashuvi, davlat ishtirokidagi banklarda menejment va risklarni boshqarish sifatining yetarli emasligi, iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikning past darajasi kabi qator tizimli muammolar mavjudligini koʻrsatmoqda. Bular bank sektorini iqtisodiy yangilanish va jamiyat ehtiyojiga mos ravishda rivojlantirishga toʻsqinlik qilmoqda.

Bank tizimiga zamonaviy servis yechimlari asosida axborot texnologiyalarini, moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish, axborot xavfsizligini talab darajada taʼminlash, shuningdek moliyaviy xizmatlar koʻrsatishda inson omili taʼsirini kamaytirish boʻyicha tezkor chora-tadbirlar koʻrish muhim ahamiyatga ega.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-son “2020-2025 yillarga moʻljallangan Oʻzbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmonida kredit portfeli sifati va risklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmi oʻsishining moʻtadil darajasiga amal qilish, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro miqyosda amaliy tajribaga ega boʻlgan menejerlarni jalb qilish, moliyaviy risklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini taʼminlash asosiy vazifalardan biri etib belgilangan.

Bank sektorining moliyaviy barqarorligi va bardoshliligi rejalashtirilgan islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning hamda biznes va aholining milliy bank tizimiga boʻlgan ishonchini mustahkamlashning asosiy sharti hisoblanadi.

Bank sektori moliyaviy barqarorligini oshirishning strategik maqsadlariga erishish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish koʻzda tutiladi:

kreditlashning oʻsish surʼatlari moʻtadilligini taʼminlash va kredit portfeli sifatini yaxshilash;

bank sektori nazoratini takomillashtirish va banklarda risklarni boshqarishning zamonaviy tizimini tatbiq etish;

bank tizimi va iqtisodiyotning real sektoridagi davlat ulushi mavjud korxonalarni isloh qilishni ta'minlash, banklar tomonidan davlat korxonalari va tashkilotlari faoliyatini transformatsiya qilishda tijorat asosida faol ishtirok etish, real va moliya sektorlaridagi o'zgarishlar uyg'un tarzda kechishini ta'minlash;

banklarning kapitaliga qo'yiladigan minimal talablarni, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga qo'shilishi va respublika bank tizimining xalqaro moliya tizimiga integratsiyalashuvini hisobga olgan holda oshirish;

eng yaxshi xalqaro tajriba asosida depozitlarni himoyalash tizimini izchillik bilan rivojlantirish [1].

### **Adabiyotlar sharhi**

Iqtisodiy adabiyotlarda bank moliyaviy barqarorligini va samaradorligini belgilovchi asosiy mezonlar va talablar qatoriga bank kredit portfelining sifat darajasini ham kiritishadi. Shu bois «bank kredit portfeli», «bank aktivlari samaradorligi» va «muammoli aktivlar» kabi atamalarning mazmun-mohiyatiga aniq tasnif berish uchun ularga berilgan turlicha ilmiy qarashlarni tahlil etish muhim hisoblanadi.

Amerikalik iqtisodchilar Kris J. Barlton, Diana Mak Noton “kredit portfeli” tushunchasiga quyidagicha ta'rif berishadi: “Kredit portfeli – bu kreditlarni turkumlashni o'z ichiga oladi” [2]. Mualliflar kredit portfeliga u yoki bu xususiyatiga ko'ra turkumlash orqali o'z fikrlarini bayon etgan.

O.I. Lavrushinning fikriga ko'ra, tijorat banklarining aktivlarini boshqarishda asosiy e'tibor guruhlash va tarkibiy tahlilga qaratilishi lozim, shundagina har bir guruh operatsiyalardan olingan foydaning darajasi va barqarorligiga real baho berish mumkin [3]. Bizningcha, mazkur qarash bir yoqlama asoslangan. Negaki aktivlarni faqatgina guruhlash yoki tarkiblash ular bilan bog'liq foydaga ta'sir qilmaydi. Ushbu aktivlarni tan olish va baholash masalalariga ham e'tibor qaratish zarur.

Yana bir xorijlik iqtisodchi N. Sokolinskaya “... kredit portfeli qisqa va uzoq muddatli kreditlar yig'indisidan iborat”, deb ta'riflaydi [4]. Muallif kredit portfeliga ta'rif berganda uning faqat muddati nuqtai nazaridan kelib chiqib, fikr bildirgan va bu to'liq kredit portfelini mohiyatini ochib bermaydi. Xalqaro amaliyotda kreditlar, odatda, muddatiga ko'ra uch guruhga ajratiladi: qisqa, o'rta va uzoq muddatli. Qolaversa ushbu kreditlar ma'lum muddat o'tgach o'z toifasini o'zgartirishi mumkin.

M. Matovnikovning fikriga ko'ra: «Tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlash amaliyotini takomillashtirishga to'sqinlik qilayotgan asosiy omil bo'lib,

banklarda uzoq muddatli resurslarning yetishmasligi hisoblanadi. Ushbu muammoni hal etishning oddiy va real usuli bo‘lib, likvidli aktivlarni garovga qo‘ygan holda Markaziy bankdan kredit olishdir» [5]. Olimning qarashlari uzoq muddatli kreditlash amaliyotini joriy etish zarurligiga asoslangan. Nazarimizda, faqatgina aktivlarni garovga qo‘yish orqali Markaziy bankdan uzoq muddatli kreditni jalb etish bilan birga, fond birjalari va ko‘chmas mulk bozorlariga kirib borish masalasini ham o‘ylab ko‘rilsa, o‘rinli bo‘lar edi.

G.S. Panovanning fikriga ko‘ra, banklarning kreditlar berish imkoniyatini oshirish uchun, birinchi navbatda, ularning depozit bazasini yetarliligini ta‘minlash imkonini berishi lozim [6]. Faqat depozit bazasining yetarli bo‘lishi kredit berish imkoniyatini oshirmaydi, balki depozit bazasining holati, uni jalb qilish shart-sharoitini ham e‘tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

O. Afanasevaning xulosasiga ko‘ra: «Rivojlanayotgan mamlakatlarda banklar uchun qisqa muddatli kreditlar berish uzoq muddatli investitsion kreditlar berishga qaraganda afzal bo‘lib, yuqori daromadliligi va past risk darajasi bilan ajralib turadi. Davlatning investitsiya siyosatining va asosiy ishlab chiqarish fondlarini yangilash va mamlakatning innovatsion ishlab chiqarish salohiyatini mustahkamlash sohasidagi siyosatining mavjud emasligi loyihaviy moliyalashtirishni rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi asosiy makroiqtisodiy omildir» [7]. Biz ushbu olimning qarashlariga qo‘shilamiz, sababi muallif bankning eng asosiy ikkita aktivlarini, ya‘ni bank kreditlari va bank investitsiyalarini ham tahlil qilish zarurligini ta‘kidlab o‘tgan.

Mahalliy iqtisodchilardan Sh. Abdullaevaning fikriga ko‘ra, banklarning kredit portfeli – bu turli xil kredit risklariga asoslangan muayyan mezonlarga qarab turkumlangan kreditlar miqyosidagi bank talablarining yig‘indisidir [8]. Professor kredit portfeliga kredit riski orqali yondashadi, vaholanki, bank kredit faoliyatida kredit riskidan tashqari boshqa risklar ham mavjud. Masalan, valyuta berilgan kreditlarda valyuta riski, suzuvchi foiz stavkada berilgan kreditlarda foiz riski yoki me‘yoriy hujjatlarning o‘zgarishi bilan bog‘liq huquqiy risk va boshqa haflar mavjud. Muallif ushbu holatlarni nazardan chetda qoldirgan.

U. Rozuqulovning fikricha, aktivlar sifatining yomonlashishi ular bilan bog‘liq xarajatlarning o‘shishida va aktivlardan olinadigan daromadlarni pasayish tendensiyasining yuzaga kelishida namoyon bo‘ladi [9]. Bizningcha, aktivlardan foydalanishning samaradorligi va ularni to‘g‘ri boshqarish belgilarini ham ochib berish hamda misollar bilan ifodalash o‘rinli bo‘lar edi.

Professor B.T. Berdiyarovning fikriga ko‘ra: «Har qanday bank ham o‘zining aktivlari tarkibini samarali shakllantirishda ma‘lum bir muammolarga uchraydi. Bank aktivlarining sifati, avvalo, aktivlarning maqsadga muvofiq



tuzilganligiga, likvidliligiga, aktiv operatsiyalarning diversifikatsiyasiga, aktivlarning risklilik darajasiga, muammoli aktivlarning salmog‘iga va aktivlarning o‘zgaruvchanlik sifatlariga bog‘liq» [10]. Muallif bank aktivlari va ularning turlari, sifatiga batafsil to‘xtalib o‘tgan.

Tadqiqotchi D.Toshpo‘latovning fikriga ko‘ra, muammoli aktiv – bu bank joylashtirgan resurslarning bir qismini qaytmasligi yoki bank ixtiyoridan chiqib ketishi, hisoblangan daromadlarni ololmasligi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar (zararlar) riski bo‘lgan bankning aktivlari va moliyaviy majburiyatlaridir [11]. Muallif muammoli aktivlarga faqat resurslar qiymati va risk nuqtai nazaridan yondashadi. Ammo banklarda daromad keltirmaydigan aktivlarning ham muammoli aktivlarga o‘tishi mumkinligi haqidagi fikr nazarda chetda qolgan.

### **Tahlil va natijalar**

Bank tizimida olib borilayotgan islohotlar davr talablariga javob beruvchi barqaror bank tizimini shakllantirish, bank xizmatlari bozorida raqobatni kuchaytirish hamda banklar va tadbirkorlik sub’ektlari o‘rtasida samarali va o‘zaro manfaatli hamkorlik munosabatlarini ta’minlashga qaratilgan.

Bank aktivlari tarkibida kredit ulushining yuqoriligi bir tomondan bankning barqaror daromad manbai hisoblansa-da, boshqa tomondan salbiy holatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Kredit ulushi yuqori bo‘lishining salbiy jihatlari quyidagilardan iborat:

bank aktivi tarkibida kredit ulushining yuqori bo‘lishi kredit riskining darajasini oshiradi;

bank aktivlari diversifikatsiya darajasini pasaytiradi;

bankning bitta sohadagi aktivlariga bog‘liqlik darajasini oshiradi;

samarali yo‘lga qo‘yilmagan kredit siyosati natijasida bankning zarar ko‘rish riski va rentabellik ko‘rsatkichlari pasayish xavfi oshadi;

ko‘rilishi mumkin zararlarning ortishi natijasida bankning raqobatbardoshligi pasayadi va boshqalar.

Ushbu salbiy holatlarni oldini olish uchun xalqaro amaliyotda tijorat banklari faoliyatida turli ssenariylarda stress-testlar, kelgusida ularning kapitali va likvidligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi risklarni kamaytirish choralari qo‘llaniladi.

Tijorat banklari kredit qo‘yilmalari yetarli darajada diversifikatsiyalangan darajasi respublika bank tizimida iqtisodiyot tarmoqlari faoliyati bilan bog‘liq risklarni mo‘tadil darajada saqlab turishga imkon beradi.

1-jadval.

**Banklar krediti qo‘yilmalarining tarmoqlar bo‘yicha ulushi (% da)\***

Tarmoqlar	01.01.2019	01.01.2020	01.01.2021	01.01.2022	01.01.2023
Sanoat	39,80	35,7	36,9	36,0	32,5
Qishloq xo‘jaligi	5,60	8,1	10,1	10,7	10,8
Qurilish sohasi	3,50	2,8	2,7	2,8	2,7
Savdo va umumiy xizmat	6,40	6,8	7,2	8,4	7,4
Transport va kommunikatsiya	12,50	11,1	9,6	8,8	7,6
Moddiy va texnik ta‘minotni rivojlantirish	1,60	1,6	1,4	1,2	1,0
Uy-joy kommunal xizmati	1,10	1,2	1,4	0,7	0,5
Jismoniy shaxslar	14,60	18,9	19,8	21,3	25,9
Boshqa sohalar	14,90	13,7	10,9	10,0	11,7
<b>Jami kreditlar</b>	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

\*Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг йиллик hisobotlari. – <https://cbu.uz/oz/statistics/>


Xususan, 2019 yilning 1 yanvar holatiga tijorat banklari kredit qo‘yilmalarining 39,8 % sanoat, 12,5 % transport va kommunikatsiya, 6,4 % savdo va umumiy xizmat ko‘rsatish, 5,6 % qishloq xo‘jaligi sohasi, 3,5 % qurilish hamda 14,6 % jismoniy shaxslar hissasiga to‘g‘ri kelgan. 2020 yilning 1 yanvar holatiga xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarga ajratilgan kredit qo‘yilmalarining 35,7 % sanoat, 11,1 % transport va kommunikatsiya, 8,1 % qishloq xo‘jaligi, 8,6 % savdo va umumiy ovqatlanish, 2,8 % qurilish hamda 18,9 % jismoniy shaxslar hissasiga to‘g‘ri kelgan.

2023 yil boshida esa jami kredit qo‘yilmalarining 32,5 % sanoat tarmog‘iga to‘g‘ri kelmoqda. Bu xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi) ekspertlarining tavsiyasiga deyarli to‘g‘ri keladi, ya‘ni bitta sohaga yoki tarmoqqa ajratilgan kreditlar jami kredit portfelining 25 % miqdorida bo‘lishi eng optimal variant deb hisoblashadi. Qolaversa jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning ulushi o‘tgan yilga nisbatan 4,8 % bandga oshgan va 25,9 % ni tashkil etgan.

O‘z navbatida banklarda kreditlarni qarzdorlar qirqimida undirish ishlari samaradorligini oshirish va moliyaviy resurslarni bank aylanmasiga qaytarishda “Pre-collection” (0), “Soft-collection” (1-30), “Hard-collection” (30+), “Legal-collection” (90+) kabi zamonaviy yondashuv usullaridan foydalanilganligi natijasida kreditlarning qaytuvchanlik darajasi oshmoqda. Ammo kreditlarning ma‘lum bir qismi qaytmaslik holatlari ham mavjud.

1-diagramma.

**O‘zbekistonda muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi (% da)**



\*O‘zbekiston Respublikasi markaziy bankining yillik hisobotlari. – <https://cbu.uz/oz/statistics/>

Mamlakat qonunchiligiga asosan, muammoli kreditlar deganda “qoniqarsiz”, “shubhali” va “umidsiz” deb tasniflangan kreditlar tushuniladi.


Tijorat banklari kredit portfeli tarkibida 2012 yilning 1 yanvar holatiga muammoli kreditlarning jami kredit qo‘yilmalaridagi ulushi 3,06 %ni tashkil etgan bo‘lsa, 2013 yilda deyarli o‘zgarmagan va 3,05 %ni tashkil etgan. Bank kreditlari hajmining o‘shishini inobatga oladigan bo‘lsak, muammoli kreditlar hajmi ham oshganligi ko‘rishimiz mumkin.

2021 yilda bank balansidagi muammoli kreditlar salmog‘ini kamaytirish choralari doirasida bir yildan ortiq muddat davomida qaytarilmagan 3,3 trln so‘mlik, shundan Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari bo‘yicha ajratilgan 251 mlrd. so‘mlik “umidsiz” kreditlar banklar balansidan chiqarildi. Muammoli kreditlarning banklar moliyaviy barqarorligiga salbiy ta‘sirini oldini olish bo‘yicha banklar va hukumat tomonidan ko‘rilayotgan tegishli chora-tadbirlar muammoli kreditlar ulushining 2021 yil yakunida 5,2 % (16,9 trln so‘m) doirasida shakllanishiga zamin bo‘ldi. Shu bilan birga, banklarda aktivlar sifatini tasniflashni xalqaro tamoyillarga muvofiqlashtirish hamda ularni samarali boshqarishni ta‘minlash maqsadida to‘lov muddatlari bo‘yicha tasniflash mezonlari qayta ko‘rib chiqildi. Natijada muammoli kreditlarning ulushi 2023 yil 1 yanvar holatiga 3,6 %ga qadar pasaygan.



2-diagramma.

**Yevropa Ittifoqida muammoli kreditlarning jami  
kreditlardagi ulushi (%da)\***



\*Jahon banki ma'lumotlari. – <https://data.worldbank.org/indicator/>

Yevropa Ittifoqi (EI)da muammoli kreditlar muttasil ravishda kamayib bormoqda. 2015 yilda muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 7,03 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilga kelib 1,79 %ga qadar pasaygan.

So'ngi yillarda Yevropada muddati o'tgan kreditlar hajmi pasayishda davom etdi, chunki misli ko'rilmagan fiskal va monetar aralashuvlar ko'plab tashkilotlarga imkoniyatlar yaratdi, aks holda ular pandemiya bilan bog'liq og'ir iqtisodiy holatda yakun topishi mumkin edi.

O'tgan yil oxirida Yevropadagi banklar o'zining hisoblarida hali ham 300 mlrd yevrodan ortiq 3-bosqich kreditlariga ega edi. Bunda eng yirik banklarga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning asosiy qismi Fransiya, Ispaniya, Irlandiya, Italiya va Gretsiyada bo'lib, ular o'rtasida taxminan 250 mlrd yevro miqdorida muddati o'tgan kreditlar mavjud bo'lgan va bunda Fransiya 80 mlrd yevro bilan yetakchilik qilmoqda. Garchi bu raqamlar yirik bo'lsa ham, 2014 yil Yevropada qayd etilgan 1 trln yevro miqdoridagi muddati o'tgan kreditlardan ancha kamdir.

YeBB ma'lumotlariga ko'ra, 2021 yil oxiriga kelib, muddati o'tgan kreditlar miqdori sezilarli darajada yuqori bo'lgan davlatlarda qoniqarli o'zgarishlar mavjud. Qolaversa bank sektorlari orasida aktivlar sifati ham oshdi va muddati o'tgan kreditlar salmog'i 2022 yilda 1,79 % ga tushdi.

Shunga qaramasdan YeI'da ayrim noaniqliklar va muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, COVID-19 pandemiyasining uzoq muddatli ta'siri noma'lum bo'lib qolmoqda, chunki hukumatlar pandemiya bilan bog'liq yordam va

imtiyozlarni bosqichma-bosqich bekor qilishmoqda. Ta’minot zanjirining uzilishi, inflyatsiya bosimi va foiz stavkalarining ko‘tarilishi, shuningdek yevroning davom etayotgan pasayishi va turli valyuta harakatlari kabi inqirozning ikkilamchi ta’siri Yevropa iqtisodiyotiga ta’sir qilishda davom etmoqda va ba’zi moliyaviy jihatdan zaif korxonalarni bankrotlik yoqasiga olib kelmoqda.

Pandemiya sababli muddati o‘tgan kreditlarning yangi zaxirasi yo‘qligi sababli, qarzni bartaraf qiladigan Yevropa banklari uchun birlamchi bozor nisbatan qulay bo‘lib qolmoqda. Mavjud muammoli aktivlarni tasarruf etish, xususan, Gretsiya va Italiya bozorlarida davlat aralashuvi bunday savdolarni qo‘llab-quvvatlagan bozorlarda davom etmoqda, biroq banklar o‘z muammolari bilan ishlaganligi sababli ularning hajmi keskin kamaymoqda. Yevropa banklari tomonidan 2021 yilda berilgan kreditlarining 100 mlrd yevroga yaqini muddati o‘tgan kreditlarga aylandi. Bu ko‘rsatkich 2020 yilga qaraganda yuqori.

Muammoli kreditlar – “qoniqarsiz”, “shubhali” va “umidsiz” deb tasniflangan kreditlarning ulushi 1,3 % dan 6,6 % ga qadar oshgan. Buning asosiy sababi qoniqarsiz kreditlarning keskin o‘sishi hisoblanadi. Mazkur holat bank uchun salbiydir. Kredit portfelidagi muddati o‘tgan kreditlar ulushining karantin cheklovlarining joriy qilinishi bilan sezilarli darajada oshishi kuzatilgan bo‘lsa, iqtisodiy faollikning tiklanishi hamda aholi daromadlarining oshishi natijasida yil yakuniga kelib muddati o‘tgan kreditlarning yil boshidagi ko‘rsatkichlarga yaqin shakllanishi ta’minlandi.

2-jadval.

**Rivojlangan davlatlar tijorat banklarida zararlarni qoplash uchun tashkil etilgan zaxiralarning bank kreditlaridagi ulushi (% da)**

Bank nomi	Davlat	2018 y	2019 y	2020 y	2021 y	2022 y
JP Morgan	AQSh	1,4	1,4	2,9	1,6	1,8
Bank of America	AQSh	1	1	2,1	1,3	1,2
HSBC	Buyuk Britaniya	0,8	0,8	1,3	1	1,1
Mizuho	Yaponiya	0,3	0,3	0,5	0,6	0,8
Credit Agricule	Fransiya	1,2	1,1	1,1	0,9	0,9
Toronto Dominion	Kanada	0,5	0,6	0,9	0,7	0,7

\* Tijorat bankalarining moliyaviy hisobotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Jadvalda 2018 yildan 2022 yilgacha bo‘lgan davrda rivojlangan davlatlar tijorat banklarida zararlarni qoplash uchun tashkil etilgan zaxiralarning bank kreditlaridagi ulushi dinamikasini ko‘rishimiz mumkin.

JP Morganning bank kreditlariga nisbatan zaxiralarning ulushi 2018-2019

yillarda 1,4 % darajasida saqlanib turilgan bo‘lsa, 2022 yilda 1,8 % gacha ko‘tarildi. Bank of America zaxiralarning bank kreditlaridagi ulushi esa o‘rtacha 1,1 % ni tashkil etadi. HSBC (Buyuk Britaniya)da 2018-2019 yillarda bank kreditlariga nisbatan zaxiralarning ulushi 0,8 % bo‘lsa, 2022 yilga kelib 0,3 % bandga oshib, 1,1 % ni tashkil etgan. Mizuho bankida 2018 yilda 0,3 % dan 2022 yilda 0,8 % gacha ko‘tarildi. Ushbu bankda so‘nggi uch yilda bank aktivlari sifati biroz yomonlashgan. Credit Agricole bankida esa bank aktivlari sifati so‘nggi 5 yilda ancha yaxshilangan. Xususan, 2018 yilda bank kreditlariga nisbatan zaxiraning ulushi 1,2 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022 yilda 0,9 % ga qadar pasaygan. Toronto Dominion bankida tashkil etilgan zaxiralarning ulushi jami kreditlarga nisbatan 2018 yilda 0,5 % dan 2022 yilda 0,7 % ga qadar oshgan. Tahlil qilinayotgan banklar ichida eng aktivlari sifati yuqori bank hisoblanadi.

3-jadval.

**Rivojlanayotgan davlatlar tijorat banklarida zararlarni qoplash uchun tashkil etilgan zaxiralarning bank kreditlaridagi ulushi (% da)**

Bank nomi	Davlat	2018 y	2019 y	2020 y	2021 y	2022 y
ICBC	Xitoy	2,3	2,6	2,8	2,8	2,9
CCB	Xitoy	2,5	2,9	3,1	3,3	3,5
Banco de Brasil	Braziliya	5	5,9	6,2	5,5	5,6
Bank Rakyat Indonesia	Indoneziya	4,2	4,4	7,2	9	8,6
Standart bank	JAR	3,3	3	3,9	3,6	3,7

\* Tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Jadvalda ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, ICBC bankida tashkil etilgan zaxiralarning bank kreditlariga nisbatan ulushi 2018 yilda 2,3 % ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2019 yilda 2,6 %, 2020 va 2021 yillarda 2,8 % va 2022 yilda 2,9 % ni tashkil etgan. CCB bankda kreditlarga nisbatan zaxiralarning ulushi 2018 yilda 2,5 % ni tashkil etgan va 2022 yilga kelib 1 % bandga qadar ortgan va 3,5 % ni tashkil etgan. Banco de Brasil bankida zaxiralarning jami kreditlardagi ulushi 2018 yilda 5 % ni tashkil etgan va keyingi 2019 yilda 0,49 % band, 2020 yilda 0, % band oshgan. 2021-2022 yillarda biroz pasaygan.

Bank Rakyat Indonesia bankida esa bu ko‘rsatkich oxirgi 5 yilda 2,1 martaga, ya’ni 4, % dan 8,6 % ga oshgan. Standart bankning bank kreditlariga nisbatan zaxiralarning ulushi 2018 yilda 3,3 % ni tashkil etdi, bu ko‘rsatkich 2019 yilda 3 % ga qadar kamaygan. 2020 yilda esa 0,9 % band oshib, 3,9 % ni tashkil etgan. 2022 yilga kelib 3,7 % ga qadar pasaygan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, rivojlanayotgan davlatlarda bank aktivlarining sifati rivojlangan davlatlardan biroz pastligini ko‘rish mumkin.

## **Xulosa**

Kredit siyosatining asosiy maqsadi bankning tegishli yil uchun ishlab chiqilgan biznes rejasiga muvofiq, mavjud resurslarni iqtisodiyotning real sektorini, shu jumladan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarini, moliyalashtirish uchun kreditlar va ularga tenglashtirilgan operatsiyalarga joylashtirish yo‘li bilan maqbul darajadagi tavakkalchilikni qabul qilish orqali daromad olinishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Banklarda kredit portfeli sifatini oshirishda kreditlash muddatlari bo‘yicha cheklovlar muhim ahamiyatga ega. Chunki ularning aniqligi va shaffofligi banklarning kelajaydagi daromadlarini aniqlashga, ularni taqsimlashga imkon beradi.

2022 yil boshiga banklar kredit qo‘yilmalarining 36 %i sanoat tarmoqlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun ajratilgan kreditlar bo‘lsa, 10,7 %i qishloq xo‘jaligi, 8,8 %i transport va kommunikatsiya, 8,4 %i savdo va umumiy ovqatlanish, 2,8 %i qurilish, 21,3 %i jismoniy shaxslar hamda 10 %i boshqa sohalarga yo‘naltirilgan. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning ulushi ilk marta 20 %dan oshdi va bu bank kreditlarining tarmoqlar bo‘yicha diversifikatsiyalanganlik darajasini oshishiga xizmat qildi. Qolaversa tarmoqlar ichida sanoatning eng yuqori ulushi muntazam ravishda pasayib borish xususiyatiga ega ekanligi ham ijobiy holatdir.

O‘z navbatida banklarda kreditlarni qarzdorlar qirqimida undirish ishlari samaradorligini oshirish va moliyaviy resurslarni bank aylanmasiga qaytarishda “Pre-collection” (0), “Soft-collection” (1-30), “Hard-collection” (30+), “Legal-collection” (90+) kabi zamonaviy yondashuv usullaridan foydalanilganligi natijasida kreditlarning qaytuvchanlik darajasi oshmoqda.

Yevropa Ittifoqi (EI)da muammoli kreditlar muntazam ravishda kamayib bormoqda. 2015 yilda muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 7,03 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022 yilga kelib 1,79 %ga qadar pasaytirishga erishgan. Mazkur holatni chuqur o‘rganish va amalga oshirilgan chora-tadbirlarni mamlakatimiz bank amaliyotiga tadbiq etish maqsadga muvofiq.

Tijorat banklari kredit portfelining sifatini oshirish bo‘yicha bir nechta ko‘rsatmalarni taklif etamiz:

1.Muddati o‘tgan kreditlarni vaqtida aniqlash. Bu kreditlarni erta aniqlash har qanday bankning diqqat markazida turadi. Banklar faqat kechiktirilgan ko‘rsatkichlarga, masalan, muddati o‘tgan to‘lovlar, keyinchalik bu jarayon qarz beruvchini vaziyatni to‘g‘irlash va qarz oluvchiga yordam berish uchun kamroq imkoniyatlar qoldiradi. Banklar muammolarning yetakchi ko‘rsatkichlariga e‘tibor qaratishlari kerak. Masalan, overdraftdan foydalanishning ko‘payishi, yangi kredit

liniyalarini izlash, savdo kreditlarining sekin to‘lanishi, ma’lumotlarning kech yetkazib berilishi va boshqalar.

2. Kreditning ta’minotini yaxshilash, yuqori likvidli va barqaror ta’minot talab qilish: kreditning ta’minoti uchun garovning yetarli darajada bo‘lishi va uning qiymati pasayib ketmasligiga ishonch hosil qilish kredit ajratishda qarorlarni qabul qilishga ijobiy yordam beradi.

3. Bankning samarali boshqaruvi tahlili: Qarz oluvchini boshqarish bo‘yicha batafsil tahlil kredit berilishidan oldin o‘tkazilishi kerak, bu umumiy boshqaruv imkoniyatlari, inqirozni boshqarish imkoniyatlarini qayta ko‘rib chiqishni va boshqaruvning yaxlitligi va o‘zgarishlarni boshqarish qobiliyatini o‘z ichiga olishi mumkin.

4. Mijozning moliyaviy holati va moliyaviy hisobotni tahlil qilish: Moliyaviy hisobotni tahlil qilish moliyaviy nuqtai nazardan kompaniyaning faoliyatini asosiy biznesning sabablari va hayotiyligini hisobga olgan holda baholashga harakat qiladi. Qarz oluvchining asosiy biznesining hayotiyligi, odatda, kompaniyaning mahsuloti yoki xizmatining bozor talablariga javob berishi, ularning doimiy ravishda ijobiy pul oqimini yaratish qobiliyati va biznesni qayta hayotga tatbiq etish uchun xarajatlarni yetarlicha qisqartirish qobiliyatiga ahamiyat berish lozim.

5. Keng qamrovli strategik rejalar: muddati o‘tgan kreditlarni minimallashtirishga yo‘naltirilgan bankning eng yaxshi amaliyotida muddati o‘tgan kredit bilan tizimli ravishda qanday munosabatda bo‘lish haqida batafsil strategik rejalarni ishlab chiqishdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги ПФ-5992-сон “2020-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида”ги Фармони. – <https://lex.uz/en/docs/4811025#4813144>

2. Диана Мак Нотон. Банковские учреждения в развивающихся странах. – 2001. – С.75.

3. Лаврушин О.И. Банковское дело: современная система кредитования: Фин. Акад. при прав. РФ. -4-е изд., стереотип. – М.: КноРус, 2008. – 64 с.

4. Соколинская Н.Э., Рудакова О.С., Маркова О.М. Современные банковские продукты и ценообразование: учебник. – М.: КноРус, 2022. – С. 220.

5. Матовников М.Ю. Банковская система России и долгосрочные

ресурсы//Деньги и кредит. – Москва, 2013. – №5. – С. 19.

6. Панова Г.С. Кредитная политика коммерческого банка. – М.: ИКЦ «ДИС», 1997. – С. 194.

7. Афанасьева О.Н. Состояние рынка проектного финансирования и факторы, сдерживающие его развития//Деньги и кредит. – Москва, 2014. - №2. – С. 37.

8. Абдуллаева Ш.З. Банк рисклари ва кредитлаш: дарслик. – Т.: Молия, 2002. – 304 б.

9. Розукулов У.У. Анализ надежности коммерческих банков и пути укрепления их устойчивости. Автореф. ... канд. экон. наук. – Ташкент: БФА, 2002. – 21с.

10. Бердияров Б.Т. Ўзбекистон Республикаси тижорат банкларининг ликвидлиги ва тўлов қобилиятини таъминлаш масалалари. Дис. ... и.ф.д. – Т. 2019.

11. Toshpulatov, D. (2020) "Fundamentals of organization of problem assets account in commercial banks," *International Finance and Accounting: Vol. 2020: Iss. 4, Article 29.*